

BOSHLANG'ICH SINFLARDA, MAQOLNI YANGICHA USULDA O'RGATISH METODIKASI

Arobova Shohsanam Akram qizi

*Osiyo Xalqaro universiteti "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
(Boshlang'ich ta'lim)" 2-kurs magistranti.*

Annostatsiya: *Ushbu ilmiy maqolada: xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lmish maqolning, boshlang'ich sinflarda yangicha o'qitish usuli haqida so'z yuritiladi.*

Kalit so'zlar: *Xalq og'zaki ijodi, maqol, maqollar, bolalar, o'quvchi, sinf, vatan, kitob, metod*

Maqol o'rganish metodikasi

Maqol arab tilidagi «qavlun»dan olingan bo'lib so'z tushunchasini anglatadi. Demak, maqol atamasini hikmatli so'z ma'nosida qabul qilish mumkin. Xalq og'zaki ijodi haqida ilmiy ish olib borgan dunyodagi hamma olimlar maqollarda millatning dunyoqarashi, hayot va tabiat voqealariga bo'lgan munosabati aks etganini alohida ta'kidlaydilar.

Maqol turmush tajribalari zaminida tug'ilgan va xalq donoligini ifodalagan qisqa, ko'pincha she'riy shakldagi hikmatli so'zlar, chuqur ma'noli iboralardir. Maqollar xilma-xil mavzularda bo'lib, hayotning turli masalalarini qamrab oladi. Ko'pincha maqol o'git, nasihat xarakterida bo'ladi: „Yer haydasang — kuz hayda, Kuz haydamasang yuz hayda“, „Hunari yo'q kishining, mazasi yo'q ishining“ kabi.

Maqol xalq og'zaki ijodining juda qadimiy shakllaridan biri bo'lib, unda xilma-xil badiiy ifoda vositalari — ohangdosh tovushlar takrori bo'ladi. Katta hayotiy va ijodiy tajribaga ega bo'lgan ajoyib so'z ustalarining o'lmas satr va hikmatli so'zlari ham ko'pincha xalq maqollariga o'xshab ketadi. Masalan, A. Navoiyning „Mahbub ul-qulub“da aytganbir qancha hikmatli so'zlari shular jumlasidandir: „Oz-oz o'rganib dono bo'lur, qatra-qatra yig'ilib daryo bo'lur“, „Tilga ixtiyorsiz — elgae 'tiborsiz“ va boshqalar.

Ma'lumki, badiiy asar matni ustida ishlash bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Maqollarni o'rganishda ham bu bosqichlarga e'tibor qaratish kerak. 1—2-sinflar maqollarni o'rganishning birinchi bosqichi bo'lsa, savod o'rgatish davri maqollarni o'qish va o'rganishning tayyorlov bosqichidir. Savod o'rgatish davridayoq o'quvchilar maqollarni o'qiydilar. Alifbe davrida berilgan maqollar matn mazmuni bilan bog'liq bo'lib, ular matn g'oyasini o'quvchilarga lo'nda, aniq yetkazish uchun ham xizmat qiladi. Bu vaqtda o'quvchilarga maqollar o'qitiladi, ma'nosini bilganlaricha izohlab berishlari so'raladi. O'quvchilar javobini o'qituvchi to'ldirib, misollar bilan dalillab beradi.

Maqollarni o'rgatish o'qituvchidan katta tayyorgarlikni talab etadi. Har bir darsga tayyorlanayotganda asar mazmuniga va unda ilgari surilgan g'oyaga mos maqol ustida

qanday mashq uyushtirishni rejalashtirib olish lozim. Iloji boricha ularni dars rejasiga kiritish, izohli lug'atlar (Masalan: Sh. Shomaqsudov, Sh. Shorahmedovning „Hikmatnoma“ (o'zbek maqollarining izohli lug'ati), Toshkent, 1990)dan uning ma'nosini oson izohlaydigan, sodda til bilan tushuntirish mumkin bo'lgan shakllarini bilib olish zarur. Buning uchun o'qituvchi „Maqollar to'plami“ va ularning izohiga oid adabiyotlarga ega bo'lishi kerak.

Boshlang'ich sinflarda matn ostida berilgan maqollarni o'qish va o'rganish, tahlil qilish asar o'qilib, tahlil qilinib bo'lingach amalga oshirilishi kerak. Chunki asar mazmuni va unda yozuvchi aytmoqchi bo'lgan g'oyani tushunmay turib, maqolning ma'nosini izohlash qiyin bo'ladi. Mualliflar ham maqol ma'nosini asar voqealari bilan izohlamochi bo'ladilar. 1-2-sinflarda maqolni ifodali o'qish va yod olishga ahamiyat beriladi. 1-2-sinfda maqolning mazmunini o'rganish va yod olishdan tashqari, uning matnidagi izohtalab so'zlar, birikmalar ustida lug'at ishi o'tkazish, badiiy til vositalari, ko'chma ma'noli, qarama-qarshima'no bildiruvchi, maqolda takrorlanib kelayotgan so'zlar ma'nosi yuzasidan ish olib borish talab etiladi. Masalan, 1-sinf “o'qish savodxonligi” 2023. darsligi 1-qism kitobida jami 10ta. Masalan: „Vatansiz bola-kuysiz bulbul“ maqolini ko'rib chiqsak. Ushbu maqolni matni ustida ishlaganda,

1. „Vatan“ so'zini yana qanday so'zlar bilan almashtirish mumkin?
2. Nima uchun Vatansiz insonni- kuysiz bulbulga o'xshatyapti?
3. Bizning vatanimiz qayer?
4. Vatanimiz haqida nimalar bilasiz?
5. B,O,N,T,Z,E,K,S,I,O' harflarini qo'shib so'z tuzing.

kabi savollar berish yo'li bilan o'quvchilarning lug'atini boyitish, bog'lanishli nutqini o'stirish ustida ishlanadi.

2-sinf “O'qish savodxonligi” darsligining 1-qismida Kitob-beminnat do'st. maqolining ma'nosini tushuntirishda o'quvchilarga, kitobni qanday paydo bo'lgani haqida qisqacha ma'lumot berib ketamiz. Bolajonlar! Kitob-noyob xazina hisoblanadi. Bilasizmi? Kitob bir necha ming yillar avval paydo bo'lgan. U davrlar kitoblar turli hil ko'rinishda bo'lgan. Odamlar qog'oz bo'lmagani uchun ma'lumotlarni tosh taxtachaga, sopol idishlarga yozishgan. Xitoyda dastlab kitobdini qamishga o'xshagan bambuk o'simligiga yozishgan. Bosma kitoblar logann Gutenberg ixtiro qilgan kitob bosish uskunasi ishga tushgach, paydo bo'la boshlagan.

“Bolalar sizlarga qanday kitoblar yoqadi?”

“Nega kitob bizning do'stimiz deganda nima tushunasiz?”

“Ayting-chi, kitob o'qishning qanday foydasi bor?”

“Bolajonlar kitoblar qanday paydo bo'lganini bilasizmi?”

Shu tariqa o'quvchilarni fikrlash doirasini kengaytirishimiz mumkin.

1-sinfda maqollarni to'g'ri o'qish va yod olishga e'tibor ko'proq qaratiladi, ammo 1-sinf “O'qish savodxonligi” darsligidagi maqollarga bog'lanib qolmasdan, boshlang'ich sinf o'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini ishga solgan holda, o'quvchilar savyasiga mos holda boshqa adabiyotlardan foydalanib maqollar yodlatishi kerak bo'ladi. Oldingi

o'qish kitoblarimizda ham 1-sinfda maqollarga katta e'tibor berilar edi. Biroq 2021-yilda nashr etilgan "Ona tili o'qish savodxonligi" darsligida biroz kam berilgan, 1-2-3-sinf "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsligining barcha qismlarida jami maqol xolos. Lekin hozirgi 2-sinf "O'qish savodxonligi" kitobida maqollar ko'proq urg'u berilgan. Masalan 2-sinf "O'qish savodxonligi" darsligida 1- 2- qism kitobida jami 55 ta maqol o'rin olgan. Ammo 2-sinf ona tili va o'qish darsligida 1-2-qismda jami maqol 36 ta edi. Bundan Ko'rinib turibdiki, xalq og'zaki ijodi na'munasi bo'lgan, maqolga juda katta e'tibor qaratilgan. 3-sinf " o'qish savodxonligi" kitobida ham maqollar mavjud bo'lib, 1-2-qismda jami 31 ta. O'qish savodxonligi 3-sinf darsligini 1-qismining 62 betida maqollarni turli xalqlarda qanday atalishi haqida ham ma'lumot berilib o'tilgan.

Demak, Maqol-arabcha, Proverbe-fransuzcha, poslovisa- Ruscha, proverb-inglizcha, sprichwort-nemischa, proverbio-italyancha. 3-sinf O'qish savodxonligi darsligida ham maqollar berilgan ushbu maqollar turli hil metodlar orqali o'quvchilar savyasiga mos holda tuzilgan. Masalan bulbul bog'ni bezaydi degan maqolni bulbul va bog'ni rasmini qo'yib bezaydi so'zini qo'ygan. Bu metoddan tashqari: Sanamay,... deb maqollarni davom ettiring degan. Ushbu metod va usuldagi maqollar Boshlang'ich sinf 1-sinf o'qish savodxonligi darsligidan boshlab, 4 -sinfgacha O'qish savodxonligi darsligida mujjassam. Shunga o'xshash metod va usullar O'quvchilarni xotirasini charxlaydi, fikrlash doirasini kengaytiradi, mantiqiy taffakkurini boyitadi hamda rivojlantiradi.

Bolajonlar Sonlarni ishtirok etgan maqollarni davom ettiring. Hamda maqolning topilgan so'zlarni alifbo tartibda raqamlar orqali yozing. Bolalar bilamiz biz o'zbek alifbosida 29 ta harf bor. A harfi 1, B-2, D-3 turadi. Shuni Alifboni eslagan holda maqollarimizni javobini topamiz. 1, 2, 3, 4, 5, 6, 7, 8, 9, 10, 11, 12,13, 14, 15, 16, 17, 18, 19, 20, 21, 22, 23, 24, 25, 26, 27, 28, 29. deb ushbu metodlarni qo'llasak yanada bolalarni mantiqiy fikrlashini boyitgan bo'lamiz.

1. Sanamay,... 18,1,10,10,8,24 3,4,12,1.

2. Bir yigitga ... 23,4,19,12,8,27 14,24.

3. Yetti o'lchab,... 2,8,18, 10,4,18.

4-sinf o'qish savodxonligi darsligining 1-qismida "Hunar bo'lsa qo'lingda, Non topilar yo'lingda." Maqolini o'rgatish metodikasini ko'rib chiqamiz.

1. Maqolni ma'nosini izohlang?

2. Hunar deganda nimani tushunasiz?

3. Hunar haqida yana qanaqa maqol bilasiz?

4. Kasb va hunarni farqlay olasizmi?

5. O'zingiz bilgan kasb va hunar nomlarini guruhlariga bo'lib yozing? degan savollar bilan o'quvchilarga yuzlanishimiz mumkin.

3-4-sinflarda maqollar maxsus darslarda va badiiy asarni o'rganish jarayonida ham muntazam o'rganib boriladi. Bu sinflarda maqollarni o'rganishdan ko'zlangan maqsad o'quvchilar dunyoqarashini shakllantirish, to'g'ri va ongli o'qish malakalarini takomillashtirish, maqoldagi har bir so'zning va yaxlit maqolning ma'nosini to'liq idrok

etishga erishishdir. O'quvchilar o'qilgan matn ichidan maqollarni, hikmatli so'zlarni o'zi mustaqil topa olish ko'nikmasini egallashi, ular yordamida o'qilgan asarlar yuzasidan to'g'ri hukm chiqarishga o'rganishlari zarur.

O'quvchilarga maqollarni mavzu bo'yicha guruhlab o'rgatishda o'qish mavzulariga asoslaniladi. Bunda maqol mazmuniga mos asarlar nomini keltirish, uning mazmun va g'oyasini maqol bilan bog'lash kerak. Bu jarayonda o'quvchilarning hayotiy tajribalari asosida misollar keltirish bilan maqollarni izohlash yoki o'quvchilarga maqol g'oyasiga mos bironta hikoya tuzish mustaqil ish sifatida berilishi ham mumkin.

3-4-sinflarda maqol janri bo'yicha tahliliy ishlar o'quv yili davomida izchil uyushtirilib boriladi, ya'ni Audio matnlar, hikoyalar, ertaklar qo'yiladi. „Asar g'oyasiga oid maqol aytinglar“, „Maqollar asosida krossvord tuzing, rebus yarating“ kabi topshiriqlar beriladi, „Maqollar aytish musobaqasi“, „Maqollar mushoirasi“ kabilar tashkil qilinadi. Maqollarni o'rganishda ko'rgazmalilik, nazariyaning amaliyot bilan bog'liqligi, ta'lim-tarbiyaning birligi tamoyillariga amal qilinadi. 4-sinf yakunida maqol janrini o'rganish yuzasidan umumlashtiruvchi darsni tashkil qilish zarur. Bunda o'quvchilarga yod olingan maqollar mavzusiga qarab guruhlash ustida ish olib boriladi.

Yuqoridagilarni hisobga olganda, maqolni o'rganishda quyidagi ish turlaridan foydalaniladi:

1. Maqolni o'qib, uning mazmuni ustida ishlash.
2. Maqoldagi so'zlarning ma'nosini izohlash.
3. Badiiy til vositalari ustida ishlash.
4. Maqolni yod oldirish.
5. Maqol matnidagi qarama-qarshi ma'noli va ma'nodosh so'zlarni aniqlash va ularning maqolda ifoda etilgan g'oya bilan aloqasini ochish.
6. Matn mazmuni va g'oyasiga mos maqol toptirish.
7. Maqollarni mavzular bo'yicha guruhlash.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. Xalq og'zaki poetik ijodi. Omonulla Madayev, T. Sobitova Toshkent-2010
2. O'zbek xalq og'zaki ijodi. O. Madayev. Toshkent-2010
3. 1-sinf "O'qish savodxonligi" 1-qism (U. B. Aydarova, N. K. Azimova) novda nashriyoti Toshkent-2023
4. 2-sinf 1-qism "O'qish savodxonligi" (U.B.Aydarova "Novda" nashriyoti Toshkent -2023.)
5. 2-sinf 2-qism "O'qish savodxonligi" (U.B.Aydarova "Novda" nashriyoti Toshkent -2023.)
6. O'qish kitobi 4-sinf darslik. S. Matchinov, A. Shojalilov, X. G'ulomova, Sh. Sariyev, Z. Dolimov Toshkent- 2020
7. 4-sinf 1-qism "O'qish savodxonligi" (M. E. Toirova "Novda" nashriyoti Toshkent-2023.)

8. 4-sinf 2-qism "O'qish savodxonligi" (M. E. Toirova "Novda" nashriyoti Toshkent-2023.)

9. Ona tili va o'qish savodxonligi 2-sinf darslik 1-2- qism. Iroda Azimova, Klaraxon Mavlonova, Sa'dullo Quronov, Shokir Tursun Toshkent-2021.

10. Ona tili o'qitish metodikasi. Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G'ulomova, Sharofat Yo'ldosheva, Sharoljon Sariyev Toshkent-2009